

3. Allen Schick, 2003. "The Performing State: Reflection on an Idea Whose Time Has Come but Whose Implementation Has Not". OECD Journal on Budgeting, OECD Publishing, vol. 3(2), pages 71-103.

4. Moynihan, D.P. (2008) The Dynamics of Performance Management: Constructing Information and Reform. Georgetown University Press, Washington DC.

5. Primova N. Development of the Result-Oriented Budgeting Mechanism in Uzbekistan. // Scientific-Electronic Journal "Green Economy and Development". 2024 No4.

## **"O'ZBEKISTON - 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA MOLIYA BOZORINI ESG TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

**Tursunov Sherzod Abduqodirovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
Innovatsion menejment kafedrası dotsenti

**Ahmedov Safoxon Xurshidxon o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
Innovatsion menejment kafedrası magistranti

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan vazifalar asosida milliy moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, mavjud tizimli muammolar hamda ularni ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari orqali bartaraf etish imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fiskal barqarorlikni ta'minlash, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, yashil iqtisodiyotga o'tish hamda moliyaviy institutlarda shaffof boshqaruvni kuchaytirish ESG yondashuvi bilan uyg'unlashganda moliya bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar.** moliya bozori, ESG, barqaror rivojlanish, davlat-xususiy sheriklik, yashil iqtisodiyot, fiskal barqarorlik, investitsiya jozibadorligi, bank tizimi, strategiya.

Global iqtisodiyotda barqaror rivojlanish tamoyillari tobora ustuvor ahamiyat kasb etayotgan sharoitda moliya bozorining samarali faoliyati iqtisodiy o'sishning muhim sharti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish hamda moliyaviy resurslarni samarali boshqarishga qaratilgan kompleks islohotlarni nazarda tutadi.

Strategiyada fiskal barqarorlikni ta'minlash, davlat majburiyatlarini samarali boshqarish, bank tizimini isloh qilish, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish va yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish kabi vazifalar belgilangan. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotga o'tish, budjet xarajatlarini barqaror rivojlanish maqsadlariga mos ravishda markirovkalash hamda ekologik

talablarga javob bermaydigan loyihalarni moliyalashtirishni cheklash kabi choralar ESG tamoyillarini milliy moliya tizimiga integratsiya qilish zaruratini ko'rsatadi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar moliya bozorida qator tizimli muammolar mavjudligini anglatadi. Avvalo, iqtisodiyotning bank kreditlariga yuqori darajada bog‘liqligi muqobil moliyalashtirish manbalarini rivojlantirishni talab etadi. Shu bois qimmatli qog‘ozlar bozorini jadallashtirish, tijorat banklari tomonidan kredit mablag‘lari ajratilishiga ko‘maklashish va strategik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini kengaytirish zarurati doirasida 30 milliard dollarlik infratuzilma, energetika, transport, sog‘liqni saqlash va ta‘lim sohalarida investitsiyalarni jalb etish. Mazkur jarayonda davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri va shartli majburiyatlarini monitoring qilish mexanizmlarini joriy etish fiskal risklarni kamaytirish uchun muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, “yashirin iqtisodiyot”ning mavjudligi soliq bazasini kengaytirishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli soliq tizimini raqamlashtirish va soddalashtirish orqali barcha tadbirkorlar uchun teng sharoit yaratish vazifasi qo‘yilgan. Hududlarning investitsion reytingini yuritish ham investorlar uchun yanada shaffof muhit shakllantirishga xizmat qiladi. “Yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish orqali sohalar kesimida tahlil qilgan holda soliqlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlash holatlarini aniqlash va ularga qarshi kurashish choralari kuchaytirish lozim.

Bank tizimida korporativ boshqaruvni kuchaytirish, xususan, kuzatuv kengashlarida mustaqil a‘zolar ulushini 2025-yilda 50 foizga yetkazilishi moliyaviy institutlar faoliyatida shaffoflikni ta‘minlash zaruratidan dalolat beradi. Aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli mikromoliya tashkilotlarini yaratish va ijtimoiy sug‘urta tizimini joriy etish esa moliyaviy inklyuziyani oshirishga qaratilgan.

Ekologik barqarorlik bilan bog‘liq muammolar ham moliya bozoriga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Ijobiy ekologik ekspertiza xulosasiga ega bo‘lmagan obyektlarni moliyalashtirishni to‘xtatish, karbon bozori mexanizmlarini joriy etish hamda yashil maydonlarni barpo etishni rag‘batlantirish kabi choralar ekologik risklarni iqtisodiy qarorlar bilan integratsiya qilish zarurligini anglatadi.

ESG tamoyillarini moliya tizimiga joriy etish yuqoridagi muammolarni bartaraf etishda samarali mexanizm bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, budget xarajatlarini barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq baholash fiskal siyosatning uzoq muddatli samaradorligini oshiradi. “Natijaga yo‘naltirilgan budgetlashtirish” va dasturiy budget tizimiga o‘tish esa davlat budjeti xarajatlarining milliy barqaror rivojlanish maqsadlariga bog‘liqligini belgilash bo‘yicha mezonlar ishlab chiqishga xorijiy ekspertlarni jalb qilishni kasb etadi. 2025-yildan boshlab Davlat budjeti loyihasini budget dasturlari kesimida qabul

qilish va dasturiy tasnif (klassifikator) ishlab chiqish ham davlat budjeti siyosatida tub burilish nuqtasi bo'lishi ehtimoli mavjud.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda amalga oshirish boshqaruv standartlarini takomillashtirish bilan birga investitsiya oqimini ko'paytiradi. Shu jihatdan ESG tamoyillarining "G" — ya'ni samarali korporativ boshqaruv elementi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ekologik mezonlarning moliyalashtirish jarayoniga kiritilishi yashil iqtisodiyotga o'tishni tezlashtiradi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, "yashil energiya" sertifikatlari bozorini rivojlantirish hamda mahsulotlarni ekologik markirovkalash tizimini joriy etish barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantiradi.

Ijtimoiy yo'nalishda esa tashabbusli budjet amaliyotini kengaytirish, mahallalarning moliyaviy mustaqilligini oshirish hamda kafolatlangan sug'urta to'lovlari orqali norasmiy bandlikni qisqartirish ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Bu esa ESGning "S" komponenti — ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Natijada ESG tamoyillarining kompleks qo'llanilishi moliya bozorining investitsiyaviy jozibadorligini oshirib, strategik loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda iqtisodiy o'sish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, "O'zbekiston - 2030" strategiyasi moliya bozorini chuqur isloh qilish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan. Strategiyada nazarda tutilgan fiskal barqarorlik, bank tizimini transformatsiya qilish, investitsiyalarni keng jalb etish hamda yashil iqtisodiyotga o'tish kabi ustuvor vazifalar ESG tamoyillari bilan bevosita uyg'unlashadi. ESG yondashuvini milliy moliya tizimiga izchil integratsiya qilish shaffoflikni oshirish, risklarni samarali boshqarish, ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish orqali O'zbekistonning global moliyaviy makondagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Shu bois ESG tamoyillariga asoslangan moliya bozori modelini shakllantirish mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlovchi strategik omil sifatida namoyon bo'ladi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

*1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PQ-300-son Qarori*

*2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.02.2024 yildagi PF-37-son Farmoni*

*3. O'zbekiston Milliy Axborot Agentligi rasmiy saytidan olingan ma'lumotlar. ("Yashil o'sish va davlat moliyasini boshqarishning muhim omillari" mavzusida)*